

Jizzax viloyatida kichik tadbirkorlik subyektlarining asosiy ko'rsatkichlari


2026-yil yanvar-iyun oylari uchun

- I. Jizzax viloyatida kichik tadbirkorlik subyektlari to'g'risida ma'lumot
- II. Yangi tashkil etilgan kichik korxona va mikrofirmalar
- III. Kichik tadbirkorlik subyektlarining asosiy iqtisodiy ko'rsatkichlari
- IV. Kichik tadbirkorlik subyektlari transport faoliyatining asosiy ko'rsatkichlari

I. Jizzax viloyatida kichik tadbirkorlik subyektlari to'g'risida ma'lumot

2026-yilning 1-iyul holatiga faoliyat yuritayotgan kichik korxona va mikrofirmalar soni 16,8 mingtani tashkil etdi.

Faoliyat yuritayotgan kichik korxona va mikrofirmalar soni dinamikasi¹




Tumanlar bo'yicha faoliyat yuritayotgan kichik korxona va mikrofirmalar soni

¹ O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022- yil 20-apreldagi PF-113-son Farmoniga asosan, davlat organlarida mavjud ma'lumotlar bazalarining dolzarbligini va statistik axborotlarning bir xilligini ta'minlash maqsadida Soliq qo'mitasi, Statistika agentligi va Adliya vazirligining davlat ro'yxatidan o'tgan yuridik shaxslar haqidagi ma'lumotlar bazalari to'liq xatlovdan o'tkazildi va aniqlangan farqlar birxillashtirildi



	2025- yil 1- iyul holatiga, birlik	2026-yil 1- iyul holatiga, birlik
Jizzax viloyati	15 492	16 794
Jizzax sh.	4 224	4 414
<i>tumanlar:</i>		
Arnasoy	771	1 060
Baxmal	1127	1 248
G'allaorol	1 441	1 401
Sharof Rashidov	2 273	2 677
Do'stlik	493	486
Zomin	1 347	1 417
Zarbdor	715	780
Zafarobod	428	591
Mirzacho'l	519	505
Paxtakor	734	763
Forish	1048	1 059
Yangiobod	372	393

Faoliyat yuritayotgan kichik korxona va mikrofirmalarning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha soni




Iqtisodiy faoliyat turlari

II. Yangi tashkil etilgan kichik korxona va mikrofirmalar

2026- yilning yanvar- iyunida 2 448 ta yangi kichik korxona va mikrofirmalar fermer va dehqon xo'jaliklarisiz) tashkil qilindi.

**Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha yangi tashkil etilgan kichik
korxona va mikrofirmalar soni**



2026- yilning yanvar-iyunida iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha eng ko'p kichik korxona va mikrofirma savdo sohasida 839 ta, qishloq o'rmon va baliqchilik xo'jaligida 605 ta, sanoatda 207 tani tashkil etgan.

Tumanlar bo'yicha yangi tashkil etilgan kichik korxona va mikrofirmalar soni




	2025- yil 1- iyul holatiga, birlik	2026-yil 1- iyul holatiga, birlik
Jizzax viloyati	1 784	2 448
Jizzax sh.	404	439
tumanlar:		
Arnasoy	170	439
Baxmal	102	173
G'allaorol	194	180
Sharof Rashidov	259	375
Do'stlik	72	48
Zomin	146	148
Zarbdor	89	95
Zafarobod	53	216
Mirzacho'l	54	87
Paxtakor	88	103
Forish	82	93
Yangiobod	68	52

III. Kichik tadbirkorlik subyektlarining asosiy iqtisodiy ko'rsatkichlari

Kichik tadbirkorlik subyektlarining YAIMdagi ulushi dinamikasi

2026- yilning yanvar-iyunida YAIM tarkibida kichik tadbirkorlik subyektlarining ulushi 71,9 % ni tashkil qilib, 2025- yilning tegishli davriga nisbatan -0,8 foizga kamaydi.

Kichik tadbirkorlik subyektlarining YAIMdagi ulushi dinamikasi




Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha kichik tadbirkorlik subyektlarining YAIMdagi ulushi

2026- yilning yanvar-iyunida kichik tadbirkorlik subyektlarining YAIMdagi iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha eng yuqori ulushi qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligida – 97,2 %, qurilishda – 85,6 %, xizmatlar sohasida – 71,8 % va sanoatda – 25,4 % ni tashkil qildi.

Kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan amalga oshirilgan sanoat ishlab chiqarishi faoliyati

2026-yil yanvar-iyun oylarida kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan 5 164,6 mlrd so'mlik sanoat mahsulotlari ishlab chiqarildi yoki sanoat ishlab chiqarishi umumiy hajmining 25,4 % ini tashkil etdi.


Kichik tadbirkorlik subyektlarining sanoat ishlab chiqarishi hajmi va jami sanoat ishlab chiqarishi hajmidagi ulushi dinamikasi



Kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan amalga oshirilgan qurilish faoliyati

2026- yil yanvar-iyun oylarida kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan amalga oshirilgan qurilish ishlari hajmi 4 125,8 mlrd so'mni yoki qurilish ishlari umumiy hajmining 85,6 % ini tashkil etdi. O'sish sur'ati 2025- yil yanvar-iyun oylariga nisbatan 118,2% ni tashkil qildi.


Kichik tadbirkorlik subyektlarining qurilish ishlari hajmi va jami hajmidagi ulushi dinamikasi



Kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan asosiy kapitalga kiritilgan investitsiya faoliyati

2026- yil yanvar-iyun oylarida kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan asosiy kapitalga o'zlashtirilgan investitsiyalar hajmi 7 328,5 mlrd so'mni yoki umumiy hajmidagi ulushi 67,9% ni tashkil etdi. O'sish sur'ati 2025- yil yanvar-iyun oylariga nisbatan 76,1 % ni tashkil qildi.


Kichik tadbirkorlik subyektlari tomonida asosiy kapitalga kiritilgan investitsiya hajmi va jami hajmidagi ulushi dinamikasi



Kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan amalga oshirilgan qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi faoliyati

2026- yil yanvar-iyun oylarida kichik tadbirkorlikning qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligidagi hajmi 18 253,9 mlrd so'mni yoki umumiy hajmidagi ulushi 97,2 % ni tashkil etdi. O'sish sur'ati 2025- yil yanvar-iyun oylariga nisbatan 106,4 % ni tashkil qildi.


Kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan yetishtirilgan qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi mahsuloti hajmi va jami hajmidagi ulushi dinamikasi



Kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan amalga oshirilgan chakana savdo faoliyati

2026- yil yanvar-iyun oylarida kichik tadbirkorlikning chakana savdo aylanmasi hajmi 6 423,3 mlrd so'mni yoki umumiy hajmining 94,5 % ini tashkil etdi. O'sish sur'ati 2025-yil yanvar-iyun oylariga nisbatan 122,9 % ni tashkil qildi.


Kichik tadbirkorlik subyektlari chakana savdo aylanmasining hajmi va jami savdo aylanmasidagi ulushi dinamikasi



Kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan amalga oshirilgan xizmatlar faoliyati

2026- yil yanvar-iyun oylarida kichik tadbirkorlikning xizmatlar sohasidagi hajmi 10 581,4 mlrd so'mni yoki umumiy hajmining 71,8 % ini tashkil etdi. O'sish sur'ati 2025- yil yanvar-iyun oylariga nisbatan 112,8 % ni tashkil qildi.


Kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan ko'rsatilgan xizmatlar hajmi va jami hajmidagi ulushi dinamikasi



Kichik tadbirkorlik subyektlarining eksport faoliyati

2026- yilning yanvar-iyunida kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan amalga oshirilgan mahsulot (ishlar va xizmatlar) eksporti hajmi 79,3 mln AQSH dollarini yoki umumiy eksport hajmining 73,5 % ini tashkil etdi.


Kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan amalga oshirilgan mahsulot (tovar, ish va xizmatlar) eksporti hajmi va jami eksport hajmidagi ulushi dinamikasi



Kichik tadbirkorlik subyektlarining import faoliyati

2026- yilning yanvar-iyunida kichik biznes subyektlari tomonidan amalga oshirilgan mahsulot (ishlar va xizmatlar) importining hajmi 130,5 mln AQSH dollarini yoki jami importning 17,6 % ini tashkil etdi.

Kichik tadbirkorlik subyektlarining mahsulot (tovar, ish va xizmatlar) importi hajmi va jami hajmidagi ulushi dinamikasi



IV. Kichik tadbirkorlik subyektlari transport faoliyatining asosiy ko'rsatkichlari

Kichik tadbirkorlik subyektlarining yuk tashish umumiy hajmidagi ulushi


2026- yilning yanvar-iyunida avtomobil transportida yuk tashishning umumiy hajmida kichik tadbirkorlik subyektlarining ulushi 93,8 % ni tashkil etdi. 2025- yilning tegishli davriga nisbatan o'sish sur'ati 112,4 % ni tashkil qildi.

2026- yilning yanvar-iyunida, avtomobil transportida yuk aylanmasining umumiy hajmida kichik tadbirkorlik subyektlarining ulushi 96,2 % ni tashkil etgan bo'lib, 2025- yilning tegishli davriga nisbatan o'sish sur'ati 104,9 % ni tashkil qildi.

2026- yilning yanvar-iyunida, avtomobil transportida yo'lovchi tashish xizmatlarining umumiy hajmida kichik tadbirkorlik subyektlarining ulushi 90,9 % ni tashkil etib, 2025- yilning tegishli davriga nisbatan o'sish sur'ati 105,8 % ni tashkil qildi.

2026- yilning yanvar-iyunida, avtomobil transporti yo'lovchi aylanmasining umumiy hajmida kichik tadbirkorlik subyektlarining ulushi 99,1 % ni tashkil etib, 2025- yilning tegishli davriga nisbatan o'sish sur'ati 102,6 % ni tashkil qildi.

Kichik tadbirkorlik subyektlarining jami transport faoliyatlaridagi ulushlari dinamikasi





Tayyorlash uchun mas'ul:

Tadbirkorlik subyektlarini
kuzatuv bo'limi

Ijrochi:

D.Abdujabborov
72 221-51-02 (2530)

Manzil:

Jizzax viloyati
Statistika boshqarmasi
